

## INGLIZ TILIDA SPEAKINGNI RIVOJLANTIRISH UCHUN SHADOWING USULIDAN FOYDALANISH

*Ergasheva Saodat Doniyor qizi*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*  
*Tel: (+998) 93 000-56-15*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko'pchilik ingliz tilini o'rganuvchilar speakingda duch keladigan muammolarni shadowing usuli yordamida bartaraf qilish va bu usulning bir qancha foydali jihatlari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zar:** shadowing , ingliz tili , usul , talaffuz , listening.

### USING THE SHADOWING METHOD TO DEVELOP ENGLISH SPEAKING

**Abstract:** This article provides information on how to overcome the problems that many English language learners face in speaking using the shadowing method and some of the benefits of this method.

**Key words:** shadowing , English , style , pronunciation , listening.

Har qanday tilni o'rganish davomida yuzaga keladigan muammolar talaygina bo'lib , ulardan eng ko'p uchrab turadigani bu xuddi native speaker lardek gapira olmaslik. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida bir qancha o'rganish va o'rgatish uslublari ishlab chiqilgan.

Shadowing ham eng samarali va qiyin bo'lmagan o'rganish usuli hisoblanadi. Bu usulning dastlabki kelib chiqishi Cherryning 1953-yilda olib borgan tadqiqotiga borib taqaladi . Uning nutqni aniqlash bo'yicha olib borgan tajribasida ishtirokchilar bir paytning o'zida tinglayotgan matnlarini takrorlashlari kerak bo'ladi. Keyinchalik bu usuldan sinxron tarjimonlarni tayyorlashda texnika sifatida foydalanilgan.

Hozirgi kunga kelib bu usul ko'pchilik til o'rganuvchilari tomonidan qo'llanilib kelinmoqda. Bu usuldan foydalanish orqali nafaqat speakingni, balki listeningni va so'z boyligini ham rivojlantirish mumkin. Chunki shadowing tinglash va takrorlash asosida amalga oshiriladi va tabiiyki native speakerlar o'z nutqlarida ko'plab iboralar, qisqartmalar qolaversa sinonimlarni qo'llashadi . Shadowingdan foydalanish hech qanday kurs yoki ortiqcha xarajat talab qilmaydi . Shunchaki telefon va siz uchun qulay bo'lgan joy kifoya .

Shadowingdan foydalanish uchun bir necha bosqichlar va ularning foydali jihatlari bo'lib ular quyidagilar:

Native spekerlar tanlash va ular tomonidan yozib olingan audio va videolar yoki kinolar , qo'shiqlar va radio eshittirishlarni to'plash. Bunda siz o'zingizga yoqqan

mavzulardagi videolarni tanlasangiz ham bo'ladi . Masalan , taomlar tayyorlash haqidagi kontentlar yoki sport sharhlari kabilar.

Dastlab to'planilgan audiolardan birini tanlab olib shunchaki asosiy ma'nosini tushunib olish uchun subtitlsiz tinglash kerak.

Keyingi bosqich tinglash jarayonida subtitldan foydalaniladi va bunda ko'z xotirasi orqali so'zlarning qanday yozilishini eslab qolish mumkin. Listening davomida ko'pchilik qisqartmalar va iboraviy fe'llarni tushunmay qoladi. Shu sababli bu bosqichda o'ta e'tiborli bo'lish talab qilinadi.

Audio yoki videoni pauza qilgan holda har bir qatorni tinglab takrorlash zarur . Agarda audio juda ham tez bo'lsa uning tezligini o'zimiz tushuna oladigan darajada sekinlatishimiz lozim. Ya'ni bu bosqichda matn mazmunini to'laqonli tushunib takrorlash kerak. Bu paytda biz uchun yangi va talaffuz qilishga qiyin bo'lgan so'zlarni belgilab tarjimasini yozib qoldirishimiz kerak bo'ladi.

Navbatdagi qadam bu native speakerlarning ingliz tilidagi tovushlarni qay tarzda tallaffuz qilish kerakligi haqidagi videolarini tomosha qilish va takrorlash bo'ladi. Chunki sizning tilingizdagi tovushlar bilan ingliz tilidagi tovushlar bir-biridan farq qiladi va ba'zi harf va tovushlar yo'q bo'lishi ham mumkin . Shu sababli ularning mimikasiga , so'z va gaplardagi urg'ulariga taqlid qilish ingliz tilida ravon so'zlasha olishga xizmat qiladi . Albatta, ohang va talaffuz juda muhim elementlardan hisoblanadi. Shu sababli ham native speakerlarning mimikasiga va ularning urg'ulariga diqqat qaratish shart.

Shadowingning yana bir muhim jihati bu sizning o'z ona tilingiz aksentini ingliz tilida gapirish jarayonida kamaytirishga yordam berishidir. Sof ingliz tilida gapirish uchun , albatta , birinchi tildagi aksentni qo'llamaslik kerak.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, shadowing ingliz tilini mustaqil o'rganuvchilar , ham til o'rgatuvchi tyutorlar uchun birdek foydali va effektiv usuldir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://hadarshemesh.com/magazine/shadowing-in-english/>
2. <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/0033688218771380>